O‘QUVCHILARDA XONANDALIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMDA AMALIY METODLAR

Samarqand davlat pedagogika instituti 70111301-Musiqiy ta’lim va san’at mutaxassisligi bitiruvchi kurs magistranti Muxamedov Navruz Kurbanovich

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta’lim maktablari 6–7-sinf o‘quvchilarida an’anaviy xonandalik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik va amaliy metodlari tahlil qilinadi. O‘zbek milliy musiqa merosining tarbiyaviy va estetik imkoniyatlari ochib berilib, xonandalikni o‘rgatishda tinglab idrok etish, musiqiy tahlil, taqqoslash, vokal-intonatsion mashqlar hamda ijodiy faoliyat metodlarining ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, o‘smirlik davrida yuzaga keladigan ovoz mutatsiyasi jarayoni va uni hisobga olgan holda o‘qitish metodikasi yoritilgan. Tadqiqot natijalari an’anaviy xonandalikni o‘qitishning tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: an’anaviy xonandalik, musiqa ta’limi, vokal ko‘nikmalar, metodlar, estetik tarbiya, mutatsiya davri, musiqiy idrok.

Аннотация В статье рассматриваются педагогические и практические методы формирования навыков традиционного вокального исполнения у учащихся 6–7 классов общеобразовательных школ. Раскрывается воспитательный и эстетический потенциал узбекского музыкального наследия. Обоснована эффективность методов слушания, музыкального анализа, сравнения, вокально-интонационных упражнений и творческой деятельности. Особое внимание уделено учету мутационного периода голоса у подростков.

Ключевые слова: традиционное пение, музыкальное образование, вокальные навыки, методы обучения, эстетическое воспитание, мутация голоса.

Abstract

This article examines pedagogical and practical methods for developing traditional vocal skills among 6–7 grade students in general education schools. The educational and aesthetic potential of Uzbek musical heritage is revealed. The effectiveness of listening, musical analysis, comparison, vocal-intonation exercises, and creative activity methods is substantiated. Special attention is given to voice mutation during adolescence and its consideration in music teaching.

Key words: traditional singing, music education, vocal skills, teaching methods, aesthetic education, voice mutation.

Kirish

Har bir millatning musiqiy madaniyati va an’analari uning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy hayoti va madaniy o‘ziga xosligini aks ettiradi. O‘zbek musiqasi ham chuqur tarixga ega bo‘lib, o‘zining noyob an’analari, uslublari va ijro etish madaniyati bilan ajralib turadi. Xonandalik san'ati – bu musiqa va ovoz orqali his-tuyg‘ularni ifoda etishning eng yuqori shakllaridan biri bo‘lib, nafaqat texnik bilim, balki ijodiy yondashuvni ham talab etadi.

O‘zbekiston ta'lim tizimida musiqiy ta'lim muhim o‘rin tutadi, xususan, o‘quvchilarda an'anaviy xonandalik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun amaliy uslublar muhim ahamiyatga ega. 6-7-sinf o‘quvchilari, bu yoshdagi bolalar uchun, musiqiy ta'limda xonandalik san'ati ko‘nikmalarini shakllantirishga oid metodik va amaliy yondashuvlar zarur bo‘lib, ularni nafaqat musiqiy bilim bilan, balki o‘z hissiyotlari, ifoda va ijro etish qobiliyatlari bilan ham ta'minlaydi.

Asriy qadriyatlar negizida qaror topgan boy musiqa merosimizni o‘rganish masalalari bugungi kunda yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘zbek xalq og‘zaki

an’analariga mansub kasbiy musiqa asarlarining keng ommalashuvi, xususan maqom, katta ashula va mumtoz qo‘shiqchilik namunalari ijrochilik amaliyotida muhim o‘rin egallashi ushbu jarayonga alohida ahamiyat baxsh etmoqda [13].


Mumtoz xonandalik san’atini o‘rganish uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning ta’lim tizimidagi shakllanishi ustoz-shogird an’analari asosida rivojlanib kelgan [1]. Shu bois an’anaviy xonandalikni o‘rgatish murakkab va ko‘p bosqichli pedagogik jarayon hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini alohida e’tirof etganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Ibn Sino musiqaning inson ruhiyati va axloqiy kamolotiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslab berganlar [10; 11].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Musiqa pedagogikasida inson ovozi eng mukammal tabiiy cholg‘u sifatida qaraladi. O.Matyoqubov ta’kidlaganidek, Sharq musiqa an’analarida inson ovozi barcha cholg‘u asboblarining ibtidosi hisoblanadi [1].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalq musiqa merosi o‘quvchilarning estetik va ma’naviy tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Bu borada A.Sh. Hasanov, I. Qudratov, B.X. Madrimov va E. Fayzulayevlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega [2; 3; 4; 5].



Tadqiqotlar natijalari xalq musiqa merosi ulkan ma’naviy xazina va shu bilan birga estetik tarbiya manbai ekanligini tasdiqlaydi. Musiqa san’atidan, uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish qachon o’zining ijobiy natijalarini beradi va bu natijalar yuqori samaradorlik kasb etadi, qachonki bu noyob xazina tarkibidagi namunalarni tanlab olish va ulardan maqsadli foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, imkoniyatlari aniq ishlab chiqilsa, namunalarni tanlab olish mezonlari ishlab chiqilsa va amalda ulardan foydalanishning ilmiy, uslubiy mexanizmi, ya’ni metodologik tamoyillari yaratilsa.

Muhokama

O‘quvchilarda xonandalik ko‘nikmalarini shakllantirishda tinglab idrok etish metodi yetakchi ahamiyat kasb etadi. D.B. Kabalevskiy fikriga ko‘ra, musiqa tinglash o‘quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy vositadir [6].

Shuningdek, musiqiy tahlil va taqqoslash metodlari o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantiradi. B.V. Asafyevning intonatsiya nazariyasiga ko‘ra, musiqani anglash jarayoni faol tafakkur bilan uzviy bog‘liqdir [7].

Taqqoslash va tahlil metodlari esa o‘quvchilarning musiqiy tafakkurini

rivojlantirib, turli xonandalik janrlarining o‘ziga xos jihatlarini ajrata olish ko‘nikmasini shakllantiradi

Vokal-intonatsion mashqlar o‘quvchilarning ovoz imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Z. Kodály tizimida vokal tarbiya musiqiy ta’limning asosi sifatida qaraladi [8]. Shu bilan birga, K. Orff konsepsiyasida ijodiy faoliyat va improvizatsiya muhim o‘rin egallaydi [9].

Ushbu metodlar bosqichma-bosqichlik tamoyili asosida qo‘llanilib, o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. An’anaviy xonandalikni o‘qitishda metodlarning uyg‘unligi o‘quvchilarda musiqiy savodxonlik bilan bir qatorda ijrochilik madaniyati va estetik didning shakllanishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari, vokal-intonatsion mashqlar metodi o‘quvchining ovoz apparatining o‘sish xususiyatlarini hisobga olgan holda intonatsion barqarorlik va nafasni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Kodáy pedagogik konsepsiyasi musiqiy jarayonni ovoz orqali o‘rganishni muhim deb biladi va bu metod an’anaviy xonandalikni o‘rgatishda milliy kuylar asosida vokal malakalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida ishlatiladi


Muhokama

Xonandalik san’atida ovoz insonning eng muhim ijro vositasi hisoblanadi. Shu bois uni to‘g‘ri rivojlantirish va asrash muhim pedagogik vazifadir [12].

O‘quvchilarda xonandalik ko‘nikmalarini shakllantirishda milliy musiqa namunalaridan foydalanish ularning estetik didini rivojlantiradi va milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytiradi [13].

O‘smirlik davrida, ayniqsa 6–7-sinf o‘quvchilarida kuzatiladigan mutatsiya jarayoni ovoz apparatining jiddiy o‘zgarishlari bilan bog‘liq. Bu davrda noto‘g‘ri vokal yuklama berish ovozning buzilishiga olib kelishi mumkin [14].

Shu sababli quyidagi metodik yondashuvlar tavsiya etiladi:



[15].

Bu yondashuvlar o‘quvchilarning ovoz salomatligini saqlash va kelajakda sifatli vokal ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda an’anaviy xonandalik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni tizimli pedagogik yondashuvni talab etadi. Tinglab idrok etish, musiqiy tahlil, vokal mashqlar va ijodiy metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi yuqori samaradorlikni ta’minlaydi [6; 8].

Shuningdek, o‘quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish, ayniqsa mutatsiya davrida ovozni asrash choralarini ko‘rish muhim ahamiyatga ega, o‘quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlarini, xususan mutatsiya davrini hisobga olish pedagogik jarayonning muhim sharti hisoblanadi. An’anaviy xonandalikni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda nafaqat ijrochilik ko‘nikmalari, balki milliy qadriyatlarga hurmat, estetik did va ma’naviy barkamollik shakllanadi. [14].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Fan, 2004. – 256 b.

2.Hasanov A.Sh. Xalq musiqa merosi asosida yoshlarni axloqiy-estetik tarbiyalash: Ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2008. – 280 b.

3.Qudratov I. Talabalarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash: Ped. fan. nomz. diss. – Toshkent, 2005. – 150 b.

4.Madrimov B.X. Xorazm musiqa folklori vositasida o‘quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 180 b.

5.Fayzulayev E. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida badiiy didni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o‘zbek mumtoz musiqasi misolida): Diss. – Toshkent, 2012. – 170 b.

6.Kabalevskiy D.B. Musiqa tarbiyasi va ta’limi asoslari. – Moskva: Prosveshcheniye, 1988. – 224 b.

7.Asafyev B.V. Musiqiy shakl va intonatsiya. – Moskva: Muzyka, 1971. – 376 b.

8.Kodály Z. Selected Writings on Music Education. – London: Boosey & Hawkes, 1974. – 210 p.

9.Orff K. The Schulwerk: Its Origin and Aims. – London: Schott, 1963. – 120 p.

10.Farobiy A.N. Musiqa ilmi haqida katta kitob. – Toshkent: Fan, 1987. – 320 b.

11.Ibn Sino A.A. Kitob ush-shifo (Musiqa bo‘limi). – Toshkent: Fan, 1983. – 200 b.

12.Qosimov R. Musiqa pedagogikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 220 b.

13.Rajabov I. O‘zbek xalq musiqa ijodiyoti. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011. – 240 b.

14.Abdurahmonov H. Musiqa o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2018. – 150 b.

15Yo‘ldoshev S. Maktabda musiqa ta’limi metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 180 b.